

## Oriental Journal of Education



### ORGANIZING THE IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL SUPPORT FOR PHONETICS TEACHING MATERIALS: THE CASE OF AN ANALYSIS OF UZBEK SCHOLARS' RESEARCH

*Dildora Sagdullayevna Ganiyeva*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

*Kattakurgan State Pedagogical Institute*

*E-mail: [dganiyeva084@gmail.uz](mailto:dganiyeva084@gmail.uz)*

*Kattakurgan, Uzbekistan*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** phonetics, educational materials, methodological support, literary pronunciation, phonological competence, system of exercises, uzbek scholars.

**Received:** 16.05.26

**Accepted:** 17.05.26

**Published:** 18.05.26

**Abstract:** This scientific article examines the improvement of methodological support for phonetics-related educational materials at general secondary and higher education levels, based on the scientific heritage of Uzbek scholars. The article focuses on urgent issues in teaching phonetics, including the formation of literary pronunciation norms, the development of phonological competence, and the enhancement of exercise and task systems. It also analyzes the contributions of scholars such as G. Hamroyev, B. Mengliyev, G. Dostmuradov, and N. Rasulov to the methodology of teaching phonetic materials. The main directions for developing phonetics-related educational materials—such as harmonization with national values, the introduction of advanced technologies, and the step-by-step organization of exercises and tasks—are also identified in the article.

### FONETIKAGA DOIR O'QUV MATERIALLARINING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHNI TASHKIL ETISH: O'ZBEK OLIMLARI TAHLILI MISOLIDA

*Dildora Sagdullayevna Ganiyeva*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti*

*E-mail: [dganiyeva084@gmail.uz](mailto:dganiyeva084@gmail.uz)*

*Kattaqo'rg'on, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** fonetika, oʻquv materiallari, metodik taʼminot, adabiy talaffuz, fonologik kompetensiya, mashqlar tizimi, oʻzbek olimlari.

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada umumiy oʻrta hamda oliy taʼlim bosqichlarida fonetika faniga oid oʻquv materiallarining metodik jihatdan taʼminlanishini yaxshilash masalalari oʻzbekistonlik olimlarning ilmiy merosi misolida oʻrganiladi. Maqolada fonetika fanini oʻqitishdagi dolzarb muammolar, jumladan, adabiy talaffuz normalarini shakllantirish, fonologik kompetensiyani rivojlantirish hamda mashq va topshiriqlar sistemasini takomillashtirish kabi masalalarga eʼtibor qaratilgan. Shuningdek, Gʻ. Hamroyev, B. Mengliyev, G. Doʻstmuradov, N. Rasulov singari olimlarning fonetik materiallarni oʻqitish metodikasiga qoʻshgan hissalarini tahlil etiladi. Maqolada fonetikaga oid oʻquv materiallarini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari sifatida milliy qadriyatlar bilan uygʻunlik, ilgʻor texnologiyalarni joriy qilish hamda mashq va topshiriqlar tizimini bosqichma-bosqich tashkil etish kabi omillar belgilangan.

---

**ОРГАНИЗАЦИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПО ФОНЕТИКЕ: НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА  
ИССЛЕДОВАНИЙ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ**

*Дилдора Сагдуллаевна Ганиева*

*Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам*

*Каттакурганский государственный педагогический институт*

*E-mail: [dganiyeva084@gmail.uz](mailto:dganiyeva084@gmail.uz)*

*Каттакурган, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** фонетика, учебные материалы, методическое обеспечение, литературное произношение, фонологическая компетенция, система упражнений, узбекские ученые.

**Аннотация:** В данной научной статье на примере научного наследия ученых Узбекистана рассматриваются вопросы совершенствования методического обеспечения учебных материалов по фонетике на этапах общего среднего и высшего образования.

В статье уделено внимание таким актуальным проблемам преподавания фонетики, как формирование норм литературного произношения, развитие фонологической компетенции и

---

совершенствование системы упражнений и заданий. Также анализируется вклад таких ученых, как Г. Хамроев, Б. Менглиев, Г. Дустмурадов и Н. Расулов, в методику преподавания фонетического материала.

В качестве основных направлений развития учебных материалов по фонетике в статье определены такие факторы, как гармония с национальными ценностями, внедрение передовых технологий и поэтапная организация системы упражнений и заданий.

---

**Kirish.** Fonetikaga oid o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish bugungi til ta'limining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Tilning tovush qurilishini o'rgatish, adabiy talaffuz me'yorlarini singdirish va o'quvchilarning fonetik kompetensiyasini kuchaytirish nafaqat ona tili, balki xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligi va uni o'qitish metodikasi sohasida fonetik materiallarni o'rgatish masalalari turli davrlarda tadqiq qilingan bo'lsa-da, bugungi kunda bu borada jiddiy ilmiy-nazariy va amaliy muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, o'zbek tilining fonetik tizimini o'qitishda rus tilshunoslik an'alarining ta'siri, eksperimental-empirik izlanishlarning yetishmasligi, fonetik atlas va transkripsion alifbolarning keng qo'llanilmayotganligi kabi metodologik muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Ushbu maqolada o'zbek olimlarining fonetikaga oid o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi, mavjud kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi[2].

**Adabiyotlar tahlili.** Fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minoti masalalari o'zbek tilshunosligi va metodikasi sohasida turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Jumladan, G'. Hamroyevning "Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish" mavzusidagi PhD dissertatsiyasi ushbu sohadagi muhim ilmiy ishlardan biridir [1;8]. Mazkur tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga oid o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari, shuningdek, mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

B. Mengliyevning "O'zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratishning nazariy asoslari" nomli maqolasida esa o'zbek tilining fonematik-fonemik tizimi zamonaviy lingvistika, xususan, kompyuter lingvistikasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi [2]. Olim tilning fonema va allofonlar qurilishi, singarmonizm va uning munozarali jihatlari, fonologik qoidalar, shevalar orasidagi fonetik

farqlar kabi masalalarni o'rganishda yuzaga kelgan metodologik muammolarni ko'rib chiqadi. Tadqiqot yakunida tilni raqamli qayta ishlash (ASR, TTS, mashina tarjimasi) hamda lingvistik tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo'lgan fonemik "xarita"ni yaratish bo'yicha nazariy tavsiyalar berilgan.

G. Dostmuradovning "The process of improving educational materials for teaching orthoepia in higher education" nomli maqolasida oliy ta'limda orfoepiyani o'qitishning hozirgi holati, adabiy talaffuzni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilingan [4]. Maqolada murakkab talaffuz qilinadigan tovushlarni o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyalar, adabiy talaffuzni shakllantirishda mashq va topshiriqlarning muhim jihatlari yoritilgan. Olimning ta'kidlashicha, o'zbek tili tovush tizimi hali to'liq ilmiy va metodik jihatdan o'rganilmagan, bu esa o'qitish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. N. Rasulovning "The importance of exercises and tasks in the formation of linguistic (phonetic) competence in Uzbek language lesson" nomli maqolasida o'zbek tili darslarida lingvistik (fonetik) kompetensiyani shakllantirishda mashq va topshiriqlarning roli tahlil qilingan [9]. Tadqiqotda alifbo, talaffuz va imloni o'zlashtirishga qaratilgan mashqlarning statik va dinamik xususiyatlari, ularning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishdagi o'rni ochib berilgan. N. Baxtridnova tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa fonetik o'zgarishlar, urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida o'rgatish metodikasi ishlab chiqilgan [6]. Muallif "O'qituvchi va o'quvchi suhbat", "Bobolar so'zi", "Milliy libos" kabi milliy qadriyatlarga tayangan metodlarni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi shundan iboratki, mazkur maqolada fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish muammosi o'zbek olimlari ilmiy izlanishlari misolida tahlil etildi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez metodi – olimlarning ilmiy ishlarini atroflicha o'rganish, ularning asosiy g'oyalarni umumlashtirish;
2. Qiyosiy-tarixiy metod – fonetika o'qitish metodikasining turli davrlardagi holatini solishtirish;
3. Tizimli tahlil metodi – o'quv materiallarining metodik ta'minotiga tizimli yondashuv asosida baho berish;
4. Kontent-tahlil metodi – ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, maqolalar mazmunini tahlil qilish.

### **Natijalar va muhokama**

1. Fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotidagi muammolar

O'zbek olimlari tadqiqotlarida fonetikaga oid o'quv materiallarining metodik ta'minoti bilan bog'liq bir qator muammolar aniqlangan. G. Dostmuradovning qayd etishicha, o'zbek tili tovush

tizimi hali ilmiy va metodik jihatdan to'liq o'rganilmagan. Muallifning yozishicha, "o'zbek tilining orfoepiyasi ma'lum darajada ilmiy o'rganilgan bo'lsa-da, bu borada hozirgacha to'plangan nazariy ma'lumotlar uning o'ziga xosligi va milliy xususiyatlarini to'liq izohlay olmaydi" [4]. Ayniqsa, XX asrning 40-yillaridan boshlab boshqa til namunalari asosida o'lchangan o'zbek tilida hali ham eski namunalarni murakkabligidan to'liq qutulolmagan joylar mavjud.

B. Mengliyev esa quyidagi metodologik muammolarni alohida ta'kidlaydi [2]:

- rus tilshunoslik an'alarining o'zbek fonologiyasiga ta'siri;
- eroniy tillar ta'siriga oid da'volarning ilmiy asoslanmaganligi;
- eksperimental-empirik tadqiqotlarning yetarli emasligi;
- fonetik atlas va transkripsion alifbolarning keng qo'llanilmaganligi.

Adabiy talaffuzni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida G. Do'stmuradov quyidagilarni ko'rsatadi [4]:

1. o'qituvchining yashayotgan hudud shevasining ta'siri;
  2. o'qituvchining adabiy talaffuz ko'nikmalariga ega emasligi;
  3. o'qituvchining shevada o'qitishni qulay deb bilishi.
2. Fonetik kompetensiyani shakllantirishda mashq va topshiriqlar tizimi

N. Rasulov o'zbek tilini o'qitishda fonetik kompetensiyani shakllantirishda mashq va topshiriqlarning muhim ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [9]. Tadqiqotchining fikricha, mashq va topshiriqlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bilimlarni mustahkamlash va avtomatlashtirish;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga aylantirish;
- nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- xatolarni aniqlash va tuzatish.

Rasulov fonetik ko'nikmalarni shakllantiruvchi mashqlarni uch turga ajratadi:

Alifbo mashqlari – harflarni bilish, tovushlarni o'zlashtirishga qaratilgan mashqlar. Bularga so'zlarning birinchi harflarini topish, yetishmayotgan unilarni aniqlash, anagrammalar, harflarni alifbo tartibida joylashtirish kabi topshiriqlar kiradi.

Talaffuz mashqlari – bu mashqlar ikki tomonlama xususiyatga ega: birinchidan, til o'rganuvchi o'rganilayotgan til tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadi, ikkinchidan, ushbu tilda eshitib tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bularga berilgan so'z, gap, mikromatn, she'r, dialog va tez aytishlarni o'qish; talaffuzi turlicha, yozilishi bir xil so'zlar (gomograflar) bilan ishlash; talaffuzi

o‘xshash, yozilishi turlicha so‘zlar (paronimlar va omofonlar) bilan ishlash; diktorni pauza bilan takrorlash; eshitilgan tovushning yozma ifodasini topish; muayyan tovushlar (ng, j, o‘, g‘, h, q) ustida ishlash kiradi.

Imlo mashqlari – bu mashqlar odatda mustaqil mashqlar sifatida qaralmaydi, ular leksik yoki grammatik ko‘nikmalar bilan birgalikda rivojlanadi. Imloni shakllantiruvchi asosiy mashq turi sifatida diktant ko‘rsatiladi.

G‘. Hamroyev esa o‘z tadqiqotida fonetikaga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratadi [1;5].

### 3. Fonetik materiallarni o‘qitishda milliy qadriyatlar bilan integratsiya

N. Baxtridinova tomonidan olib borilgan tadqiqotda fonetik o‘zgarishlar, urg‘u va bo‘g‘inni milliy qadriyatlar asosida o‘rgatish metodikasi ishlab chiqilgan. Muallifning ta‘kidlashicha, “O‘qituvchi va o‘quvchi suhbat”, “Bobolar so‘zi”, “Milliy libos” kabi milliy qadriyatlarga asoslangan metodlar o‘quvchilarning fonetik materiallarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. T. Zaripov va A. Karimov kabi olimlarning ishlarida ham fonetik hodisalarni milliy madaniyat bilan bog‘lab o‘rgatishning ahamiyati alohida qayd etilgan [6].

### 4. Fonetikaga doir o‘quv materiallarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbek olimlari tadqiqotlari tahlili asosida fonetikaga oid o‘quv materiallarining metodik ta‘minotini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini belgilash mumkin:

1. Ilmiy-nazariy asoslarni mustahkamlash. B. Mengliyev ta‘kidlaganidek, o‘zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratish, uning zamonaviy lingvistika, xususan, kompyuter lingvistikasidagi o‘rnini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Bu esa o‘zbek tilining boy fonetik xususiyatlarini formal modelda aks ettirish imkonini beradi.

2. Mashq va topshiriqlar tizimini bosqichli tashkil etish. G. Asilova tomonidan taklif etilgan bosqichli tizim – tanishtirish, kuzatish va tuzatish – fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali hisoblanadi [9]. Tanishtirish va kuzatish bosqichi boshlang‘ich darajaga mos bo‘lib, bu bosqichda o‘zbek tili tovush tizimini o‘zlashtirish mashqlarning muayyan tizimini talab qiladi. Tuzatish bosqichi esa katta yoshdagi til o‘rganuvchilarning talaffuzini tuzatishni o‘z ichiga oladi.

3. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. B. Mengliyevning taklifiga ko‘ra, tilni raqamli qayta ishlash (ASR, TTS, mashina tarjimasini) hamda lingvistik tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan fonemik “xarita”ni yaratish fonetik materiallarni o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. N. Kushiyeva rahbarligidagi O‘zDJTU Ingliz tili funksional leksika kafedrasini tomonidan birinchi kurs

talabalari uchun “Amaliy fonetika” qo‘llanmasi ishlab chiqilgani ham ushbu yo‘nalishdagi muhim qadamdir.

4. Milliy qadriyatlar bilan integratsiya. N. Baxtridinova tadqiqotida taklif etilgan milliy qadriyatlar asosidagi metodlar o‘quvchilarning fonetik materiallarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi [6].

5. Dialekt va shevalarning ta’sirini bartaraf etish. G. Dostmuradov ta’kidlaganidek, adabiy talaffuzni shakllantirishda dialekt va shevalarning salbiy ta’sirini bartaraf etish, o‘qituvchilarning adabiy talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

**Xulosa qilib aytganda,** fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish masalasi o‘zbek olimlari tomonidan turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. G‘. Hamroyev, B. Mengliyev, G. Do‘stmuradov, N. Rasulov, N. Baxtridinova kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fonetikaga oid o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

-o‘zbek tilining fonetik tizimini o‘rganishda rus tilshunoslik an‘analari ta’siridan voz kechish, milliy xususiyatlarni to‘liq aks ettiruvchi ilmiy-nazariy asos yaratish;

-fonetik kompetensiyani shakllantirishda mashq va topshiriqlar tizimini bosqichli (tanishtirish, kuzatish, tuzatish) tashkil etish;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-fonetik materiallarni o‘qitishda milliy qadriyatlar bilan integratsiyani ta’minlash;

-o‘qituvchilarning adabiy talaffuz ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borish.

Kelgusida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq:

-o‘zbek tilining fonetik atlasini yaratish va uni ta’lim jarayoniga joriy etish;

-fonetik materiallarni o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish;

-turli darajadagi ta’lim (maktab, litsey, kollej, oliy ta’lim) uchun fonetikaga oid o‘quv materiallarini darajalash tizimini takomillashtirish;

-fonetik kompetensiyani baholashning zamonaviy mezon va metodlarini ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hamroyev G'. Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. – Samarqand, 2019.
2. Mengliyev B. O'zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratishning nazariy asoslari. // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti konferensiya materiallari. – 2025.
3. Dostmuradov G. The process of improving educational materials for teaching orthoepia in higher education. // Science and Innovation International Scientific Journal. – 2024. – Volume 3 Issue 12. – P. 111-115.
4. Rasulov N.M. The importance of exercises and tasks in the formation of linguistic (phonetic) competence in Uzbek language lesson. // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025.
5. Baxtridinova N. Fonetik o'zgarishlar, urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida o'rgatish. – Namangan, 2025.
6. Muhiddinova G. O'quvchilarni grammatik tahlilga o'rgatish. // NUUZ "Axborotnomasi". – 2024. – 1(1.6.1). – B. 159-160.
7. Muxtorova E.R. Enhancing phonological and morphological awareness among intermediate-level Uzbek EFL learners. // Zamonaviy fan va tadqiqotlar. – 2025. – 4(5). – B. 837-840.
8. Rasulova G.K. Types and descriptive aspects of learning tasks in literary education. // Education and innovative research. – 2025.
9. O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasini. – Jizzax davlat pedagogika universiteti.